TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
TDIU
1931

# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№2
MAXSUS SON

# BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982
https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/
2026

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

Elektron nashr.
2026-yil, mart.

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

XODIMLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI, KORPORATIV MADANIYAT VA MEHNAT UNUMDORLIGI O'RTASIDAGI UZVIY BOG'LIQLIKNI CHUQUR TAHLIL QILISH ........ 8
**Shoabdurashidova Mahina Jaxongir qizi, Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH........ 15
**Jolg'ashova Nozima Mansurovna, T.D. Mamatkulov**

АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ........ 21
**Давлетова Адиля Азатбаевна, Сапаев Дилшод Хушнудович**

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHI IQTISODIY O'SISHNING OMILI........ 27
**Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich**

"LOKOMOTIV" MEHMONXONASI ZAMONAVIY SHAROITLARDA XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI........ 31
**Masharipov O'rolbek Ozod o'g'li, Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI........ 36
**Boybosinova Shaxlo Meles qizi, Ostonov Muhriddin Bahriddin o'g'li**

AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONIDA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH VA BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH........ 44
**Qodirjonov Dilshodjon Qosimjon o'g'li, Xolmirzayev Ulug'bek**

BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH........ 49
**Igamberdieva Kunduz Ergashevna, O'razova Marjona Valiboy qizi**

ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ........ 55
**Камилова Наргиза Абдукахоровна, Давронов Дониёрбек Заррухович**

ANALYSIS OF OUR COUNTRY'S POSSIBILITIES FOR ACCESS TO THE SEA THROUGH THE KABUL CORRIDOR........ 61
**Khuzhamov Babur, Khudoyberdiev Diyorbek, Jumaboev Bekzod**

O'ZBEKISTONDA ESK.UZ TIZIMINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA ISTIQBOLLARI ........ 69
**M.J.Nurmetova, Baxtyorov Ahadbek Doniyor o'g'li**

O'ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTALARNING JORIY FOYDALANISHINI TAHLIL QILISH........ 77
**Qobilova N. Q., Normurodov X. E.**

MOLIYAVIY RISKLAR VA ULARNI XALQARO MIQYOSDA BOSHQARISH USULLARI........ 83
**Toirov Bobur G'ofir o'g'li, F.U.Umarov**

SUN'IY INTELEKTNING INSON ONGIGA VA DAVLAT KORXONALARINI RAQAMLASHTIRISHGA TA'SIRI........ 90
**Uskanboyev Temurbek Ismoil o'g'li, F.U.Umarov**

IQTISODIYOT TARMOQLARI YUKLARINI TASHISHNI TASHKIL ETISH........ 97
**Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

TARIXIY OBIDALAR ASOSIDA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ........ 102
**Boltaboyeva Maqsuda Matjonboy qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich**

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INTERNET VA IJTIMOIY TARMOQLARNING ROLI ........ 105
**Abdumutalova Shahzoda Yodgorjon qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich**

ФИНАНСИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ЗА СЧЕТ ИНВЕСТИЦИОННЫХ И ПАЕВЫХ ФОНДОВ ........ 109
**Дилшод Насиров, Сухроб Хайитов, Самира Каримова**

КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК УСЛОВИЕ ОСМЫСЛЕННОГО РАЗГОВОРА ОБ ЭКОНОМИКЕ ........ 115
**Зайналов Ж. Р., Абдумажидов Ш. Ш.**

ГОСУДАРСТВЕННЫЕ РАСХОДЫ КАК ПОКАЗАТЕЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТРАНЫ ........ 119
**Юсупов Азаматжон Икромович, Ишонкулова Феруза Асатовна**

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ В ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ ........ 124
**Насиров Дилшод Фархадович, Казакбаева Динара, Максетбаева Гулпаршин**

ВЕЛИКОЕ УСКОРЕНИЕ: КОНВЕРГЕНЦИЯ ИИ И БЛОКЧЕЙНА КАК НОВАЯ ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПАРАДИГМА 2026 ГОДА ........ 129
**Насиров Дилшод Фархадович, Синько Юлианна Викторовна, Шамшетова Жамила Муса кызы**

KORXONANING IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI ........ 134
**Turg‘unpulatov Ziyovuddin Alijon o‘g‘li, Odilov Xamidillo Mahmudjon o‘g‘li**

РОЛЬ БЛОКЧЕЙН-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОЗРАЧНОСТИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ ........ 139
**Дилмуродов Журабек Улугбек угли, Белалова Гузаль Анваровна**

OPERATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH ........ 144
**Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o‘g‘li, X.M. Odilov**

HAVO IFLOSLANISHI VA YASHIL TABIAT YOMONLASHUVI NATIJASIDA SOG‘LIQNI SAQLASH XARAJATLARINING OSHISHI: IQTISODIY TAHLILI ........ 150
**Sotvoldiyeva Rayxona Abdurasul qizi, Odilov Xamidillo**

TIJORAT BANKLARIDA PUL MABLAG‘LARI HARAKATI VA LIKVIDLIK TAHLILI ........ 155
**Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, X.M.Odilov**

NOMINAL VA REAL YAIM VA UNING O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDAGI AHAMIYATI ........ 162
**Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich, Jo‘rayev Toshbolta To‘xtayevich**

YASHIL IQTISODIYOT: ZAMONAVIY RIVOJLANISH PARADIGMASI SIFATIDA TAHLILI ........ 167
**Yo‘ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o‘g‘li, Yoqubova Zilola Tura qizi**

РОЛЬ БРЕНДИНГА В ИННОВАЦИОННОЙ СИСТЕМЕ МАРКЕТИНГА ........ 172
**Насиров Дилшод Фархадович, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли, Толибжонов Умеджон Одилович**

AMIR TEMURNING IJTIMOIY, IQTISODIY VA SIYOSIY QARASHLARI ........ 176
**Lola Xalikova Nazarovna, Mutabar Absamatova Jamshid qizi**

ИНТЕГРАЦИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ВОЗМОЖНОСТИ И УГРОЗЫ В КОНТЕКСТЕ НОВОЙ РЕГИОНАЛЬНОЙ АРХИТЕКТУРЫ ........ 181
**Убайдуллаев Сирожиддин**

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROLI ........ 186
**Fazilat Esirgapovna Jomonqulova, Nizomov Murod, Madinabonu Temirova Otabek qizi**

ПОТРЕБИТЕЛЬСКАЯ КОРЗИНА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ ........ 191
**Ишонкулова Феруза Асатовна, Ибрагимова Ширин**

IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI, AHAMIYATI VA ULARNING ZAMONAVIY GLOBAL IQTISODIYOTDAGI TRANSFORMATSIYASI ........ 195
**Abdukaxxorova Durdona Ilxomovna, Muhabbat Hakimova Fayziyevna**

# IQTISODIY TA’LIMOTLAR TARIXI, AHAMIYATI VA ULARNING ZAMONAVIY GLOBAL IQTISODIYOTDAGI TRANSFORMATSIYASI

**Abdukaxxorova Durdona Ilxomovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
ORCID: 0009-0009-4800-3220
Email: abduqaxxorovadurdona64@gmail.com

Ilmiy rahbar:
**Muhabbat Hakimova Fayziyevna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
ORCID: 0000-0002-8085-2347

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy ta’limotlar tarixi haqida ma’lumotlar berib o‘tiladi. Iqtisodiyot fanining rivojlanish bosqichlari va bu yo‘ldagi olib borilgan tadqiqotlar hamda ilgari surilgan g‘oyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, bugungi globallashuv davrida iqtisodiy ta’limotlar tarixini o‘rganishning ahamiyati va bu tarixiy yo‘l mobaynida qilingan xatolarni tahlil qilish muhimligi tadbiq etiladi. Maqolada turli davrlardagi iqtisodiy maktablar o‘rtasidagi farqlar va ularning zamonaviy iqtisodiy siyosatga ta’siri yoritib beriladi. Shuningdek, iqtisodiy ta’limotlar tarixini o‘rganish orqali hozirgi iqtisodiy muammolarga ilmiy yondashuvni shakllantirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Klassik siyosiy iqtisod, keynschilik, Adam Smit, merkantilizm, fiziokratlar, marjinalizm, marksizm, klassik maktab.

Abstract: This article presents information on the history of economic thought. It analyzes the stages of development of economic science, the research conducted throughout this process, and the economic ideas that were proposed. In addition, the importance of studying the history of economic thought in the era of globalization and the significance of analyzing mistakes made throughout its historical development are discussed. The article highlights the differences between economic schools of various historical periods and their influence on modern economic policy. Furthermore, it demonstrates how studying the history of economic thought contributes to the formation of a scientific approach to addressing contemporary economic challenges.

Key words: classical political economy, Keynesianism, Adam Smith, mercantilism, physiocrats, marginalism, Marxism, classical school.

Аннотация: В данной статье приводятся сведения по истории экономических учений. Анализируются этапы развития экономической науки, проведённые в ходе этого процесса исследования и выдвинутые экономические идеи. Также рассматривается значимость изучения истории экономических учений в условиях современной глобализации и важность анализа ошибок, допущенных на протяжении исторического пути развития экономической мысли. В статье освещаются различия между экономическими школами различных исторических периодов и их влияние на современную экономическую политику. Кроме того, показаны возможности формирования научного подхода к решению современных экономических проблем на основе изучения истории экономических учений.

Ключевые слова: Классическая политическая экономия, кейнсианство, Адам Смит, меркантилизм, физиократы, маржинализм, марксизм, классическая школа.

## KIRISH

Bugungi globallashuv davrida har bir davlatning rivojlanish bosqichida uning iqtisodiyoti muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, prezidentimiz shunday ta’kidlaydilar: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir, – dedi Shavkat Mirziyoyev yig‘ilishda. – Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan

ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat"[1].

XX asr buyuk adiblarimizdan biri Abdulla Qodiriyning "Moziyga qarab ish ko'rmoq xayrlidir" degan ibratli gapi mashhur[2]. Shunday ekan, biz ham iqtisodiyot fanining kelib chiqishi va uning rivojlanishi uchun kimlarning hissasi borligini hamda qanday bosqichdan o'tganligi haqida so'z olib boramiz. "Iqtisodiyot inson xulq-atvorini maqsadlar va muqobil ishlatilishi mumkin bo'lgan kam resurslar o'rtasidagi munosabat sifatida o'rganuvchi fan", – deb ta'riflaydi iqtisodchi olimlardan biri Layonel Robbins[3]. "Iqtisodiyot bu jamiyatlar cheklangan resurslardan foydalanib, qimmatli mahsulotlar ishlab chiqarishi va ularni turli insonlar o'rtasida taqsimlash jarayonini o'rganuvchi fan", – deb aytgan Paul A. Samuelson. "Iqtisodiyot – bu o'zaro bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish, iste'mol va ayirboshlash faoliyatining murakkab tizimi bo'lib, unda odamlar o'rtasida resurslar qanday taqsimlanishini belgilaydi. Tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, iste'mol qilish va taqsimlash iqtisodiyotda yashovchi va faoliyat yurituvchi kishilarning ehtiyojlarini qondirish uchun birlashtiriladi. Iqtisodiyot millatni, mintaqani, bitta sanoatni yoki hatto bitta oilani qamrab olishi mumkin". Bu fanning nomi Qadimiy Yunonistonning buyuk olimi Aristotel tomonidan ikki so'z: "oykos" – xo'jalik va "nomos" – qonun so'zlarini qo'shish yo'li bilan berilgan. Shuning uchun ham "iqtisodiyot" yunonchadan aynan tarjima qilinganda "xo'jalik qonunlari" ma'nosini bildiradi[4].

Nobel mukofoti sovrindori, amerikalik iqtisodchi, professor Pol Samuelson iqtisodiy nazariyaga shunday ta'rif beradi: "Iqtisodiy nazariya – bu ishlab chiqarish va odamlar o'rtasidagi almashinuv bo'yicha faoliyat haqidagi fandir. U ijtimoiy fan bo'lib, ayrim kishilarning va jamoalarning ishlab chiqarish, tovar ayirboshlash, taqsimlash va moddiy ne'matlar, xizmatlarni iste'mol qilish jarayonidagi harakatlarini o'rganadi"[5].

"Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fani "Iqtisodiy nazariya" fani bilan chambarchas bog'liq, lekin undan katta farq qiladi. "Iqtisodiy nazariya" fanida eng muhim iqtisodiy kategoriyalarning so'nggi davr uchun tahlili beriladi, ammo bu nazariyalar har doim ham turg'un bo'lmaydi va vaqt davomida, ayniqsa, keskin o'zgarishlar davrida evolutsiyada bo'ladi. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanida ayrim olimlar, davlat arboblari tomonidan ilgari surilgan g'oya, qarash, nazariya, qonun, ta'limot, konsepsiyalar insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlaridagi ijtimoiy qatlamlar, sinflar va boshqa guruhlarning manfaatlari nuqtayi nazaridan tarixiy rivojlanishi tadqiq etiladi.[6]

Iqtisodiyot insonning tarixi kabi qadimiydir. Iqtisodiyotga oid fikr, g'oya, qarash, nazariya va ta'limotlar ham ko'p ming yillik tarixga ega. Lekin ularning asosiy qismi yozuv paydo bo'lganidan so'ng, yozma manbalardan bizgacha yetib kelgan. Bu manbalar, ulardagi g'oyalar, avvalo, insoniyatning muqaddas mulkidir, uni topish, o'rganish va kelajak uchun saqlash savobli bo'lsa, ulardagi nodir fikrlarni hayotga tatbiq etish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etishi bilan birga katta tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy muammolarni tahlil qilishga doir dastlabki urinishlar qadimgi yunon faylasuflari asarlarida uchraydi. Aflotun jamiyat hayotining iqtisodiy asosiga e'tibor qaratgan va o'zining "Respublika" asarida mehnat taqsimotiga asoslangan namunaviy jamiyat modelini yaratgan. Aristotel ham iqtisodiy xavfsizlikni ijtimoiy va siyosiy farovonlikning asosi deb bilgan va o'rtacha hajmdagi yer uchastkasiga ega kishini ideal fuqaro sifatida tasvirlagan. Rim mualliflari – Tsitseron, Vergiliy va Varro – qishloq xo'jaligi iqtisodiyotiga doir muhim maslahatlar berganlar. O'rta asrlar esa qadimgi dunyoning rivojlangan savdosining izdan chiqishi bilan xarakterlanadi va bu davrning iqtisodiy hayoti feodalizm hukmronligi ostida shakllangan. XVIII asrning eng muhim asari, shubhasiz, Adam Smitning 1776-yilda nashr etilgan "Millatlar boyligi" (The Wealth of Nations) kitobidir. Ko'pchilik olimlar bu asarni iqtisodiyot bo'yicha yozilgan birinchi to'liq va tizimli traktat deb hisoblaydi. Adam Smit shaxsiy manfaatdorlikni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi deb aniqlagan. 1776-yilda bizning zamonamizning eng ta'sirchan kitoblaridan biri – "Millatlar boyligi" dunyo yuzini ko'rdi. Muallifi Adam Smit bo'lib, aynan shu asar tufayli u "Iqtisodiyotning otasi" unvoniga sazovor bo'lgan.[7]

Adam Smitning muxlisi bo'lgan fransuz iqtisodchisi Jan-Batist Seyning 1803-yilda nashr etilgan "Siyosiy iqtisod haqidagi traktat" asari Smitning "Millatlar boyligi" kitobini o'z vatanida – Fransiyada keng targ'ib qilishga yordam berdi. Smitning nazariyalarini va bozorning inson ehtiyojlarini qondirishdagi rolini tushuntirar ekan, Sey o'zi shunday qonuniyatni ishlab chiqdiki, keyinchalik u Sey qonuni (Say's Law) deb ataldi.

1 https://president.uz/oz/lists/view/4089
2 https://gov.uz/oz/cirns/news/view/83718
3 Lionel Robbins (An Essay on the Nature and Significance of Economic Science (Iqtisodiyot fanining tabiati va ahamiyati haqida risola), Bob II.
4 https://fasih.uz/posts/iqtisodiyot-u-nima-iqtisodiyot-turlari-iqtisodiy-korsatkichlar
5 Samuelson.P. Iqtisod .1-2-kitob, 1992-yil
6 Islomov A .,Egamov E.T. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi ,TMI ,2003
7 "Adam Smith on markets and their potential to benefit the poorest in society" Ginny Seung Choi, Virgil Henry Storr

Sey qonuniga ko'ra: "Ishlab chiqarish o'z talabini o'zi yaratadi", ya'ni odamlar tovar va xizmatlar ishlab chiqarib sotadilar, chunki ular o'sha pul bilan o'zlari xohlagan narsalarni sotib olishadi. Agar biror mahsulotga talab tushib qolsa, sotuvchilar uni ishlab chiqarishni to'xtatib, talab yuqori bo'lgan boshqa mahsulotga o'tadilar. Shu sababli, umumbashariy ortiqcha ishlab chiqarish yoki uzoq davom etadigan ishsizlik bo'lishi mumkin emas, deb hisoblardi Sey[8].

1930-yillardagi Buyuk Depressiya – millionlab ishsizlar, yillar davom etgan ortiqcha ishlab chiqarish va talabning keskin tushib ketishi – Sey qonunini butunlay rad etdi va bu qonun endi faqat tarixiy ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Adam Smitdan keyingi eng muhim iqtisodchi Devid Rikardo bo'ldi. U klassik iqtisodiyotning eng nufuzli vakillaridan biri va ko'pincha bu maktabni tizimga soluvchi shaxs deb ataladi. Uning asosiy asari – 1817-yilda chop etilgan "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish tamoyillari" (Principles of Political Economy and Taxation). Ushbu kitobda u o'zining eng muhim nazariyalarini bayon qilgan, xususan, ish haqi va qiymatni belgilash masalalariga bag'ishlangan qismlari alohida e'tiborga loyiq.

Rikardoning asosiy g'oyalari:

Birinchi – "Temir ish haqi qonuni" (Iron Law of Wages). Ish haqi uzoq muddatda faqat yashash minimumi atrofida barqaror turadi. Agar ish haqi bu darajadan yuqori ko'tarilsa, ishchi oilalar ko'proq bola tug'ib, aholi soni oshadi. Natijada mehnat bozorida ishchilar soni ortib, raqobat kuchaygach, ish haqi yana yashash minimumigacha tushadi.

Ikkinchi – "Qiyosiy ustunlik nazariyasi" (Theory of Comparative Advantage) xalqaro savdo haqidagi eng muhim nazariyalardan biri bo'lib, bugungi kungacha iqtisodchilar tomonidan keng qabul qilinadi. Unga ko'ra, har bir mamlakat o'zida nisbatan arzonroq ishlab chiqariladigan tovarlarga ixtisoslashishi kerak, hatto u barcha tovarlarni mutlaq arzonroq ishlab chiqara olsa ham. Bu savdo orqali barcha ishtirokchi mamlakatlarning farovonligini oshiradi. Rikardoning bu g'oyalari klassik iqtisodiyotning asosiy ustunlaridan biriga aylandi va keyingi avlod iqtisodchilariga, jumladan, Karl Marksga ham katta ta'sir ko'rsatdi.[9]

Britaniyalik iqtisodchilardan biri Jon Meynard Keyns yuqori ishsizlik darajasi iste'molchilarning yetarli xarajat qilmasligi natijasida yuzaga kelishini va buni hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan dasturlar orqali kamaytirish mumkinligini ta'kidlagan. Uning "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" (1936) asari biznes sikllarini o'rganishda mutlaqo yangi yo'nalishni ochib berdi. Keyns ta'limotining asosiy natijalaridan biri shundaki, hukumatlar iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri pul yo'naltirish orqali biznes sikllarini boshqarishga urinib kelmoqda. "Nasosni ishga tushirish" (pump-priming) texnikasi – ko'pincha muvozanatsiz budjet bilan birga qo'llanadigan ushbu usul – hozirgi ko'p kapitalistik iqtisodiy tizimlarning ajralmas qismiga aylangan.[10]

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada umum milliy-tarixiy va mantiqiy tahlil metodlaridan foydalaniladi. Iqtisodiy g'oyalar evolyutsiyasini o'rganish uchun qiyosiy-tarixiy metod qo'llaniladi, bu esa konsepsiyalarning rivojlanishini xronologik ketma-ketlikda kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, iqtisodiy nazariyalarning o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy sharoit bilan bog'liqligini tahlil qilish uchun tizimli yondashuv metodidan foydalanildi. Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqotning metodologiyasi har tomonlama puxta ishlab chiqilgan bo'lib, unda ilmiy asoslanganlik, amaliy natijadorlik, axborotlarning ishonchliligi, etik tamoyillarga sodiqlik va texnologik yondashuvlar uyg'unligiga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqotning nazariy va amaliy natijalarini yuqori darajada ta'minlashga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar: Har xil iqtisodiy g'oyalar, qarashlar, konsepsiyalar, nazariyalar, ta'limotlar qadimdan to bugungi kungacha paydo bo'lganligi barchamizga ma'lumdir. Ularning barchasini to'la o'rganish va tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda yangi-yangi tadqiqotlar olib borish, tahlil etish va umumlashtirib e'lon qilish zarur, bu yaqin kelajak vazifasi sifatida qabul qilinishi mumkin. Ammo hozirgi davrgacha jamlangan barcha iqtisodiy g'oyalarni ma'lum tizimga solish va shu asosda o'rganish maqbuldir.

Dastlabki iqtisodiy g'oyalar odamzod paydo bo'lgan davrlarda shakllanishni boshlagan, ammo bizgacha yetib kelganlari mil.avv. 2-ming yillikka to'g'ri kelib, ko'proq qadimiy Osiyo xalqlarining xo'jalik faoliyatini aks ettiradi. Antik dunyoga ma'lum darajada amaliyotni nazariy umumlashtirish, abstraksiyalash oqibatida birinchi iqtisodiy mushohadalar, ayrim iqtisodiy tushunchalar, kategoriyalar shakllana boshladi. Qullikka asoslangan natural xo'jalik, ayniqsa qishloq xo'jaligi qo'llab-quvvatlangan, boylikning asosiy manbayi mehnat deb hisoblangan. Hindistonda "buyumning qiymati"ni "ish kunlari" bilan belgilab, mahsulotning bozor bahosi bilan uning tabiiy qiymati o'rtasidagi farq aytilgan, foyda masalasi ko'tarilib, uning miqdori cheklangan. Davlatning iqtisodga aralashuvi qo'llab-quvvatlangan. Agar Osiyoda quldorlik ko'proq patriarxal shaklda bo'lsa, antik

8 Galyautdinov R.R. Jan Batist Sey – fransuz "Adam Smiti" // Iqtisodiyot o'qituvchisi sayti. [2014].
9 Henderson, John P. *The Life and Economics of David Ricardo*. With supplemental chapters by John B. Davis; edited by Warren J. Samuels and Gilbert B. Davis. Boston: Kluwer Academic, 1997
10 History of economic thoughts. Abdella Mohammad Ahmed.

dunyoda u klassik ravishda ro‘y bergan, natural hunarmandchilik, dehqonchilik xo‘jaligi qo‘llangan, ammo bu davr oxirida savdo, sudxo‘rlik ham qo‘llab-quvvatlangan. Pulning asosan almashuv (Ksenofont jamg‘arish) funksiyasi tan olingan. Mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, boylik jamg‘arish zararli deb hisoblangan. “Ekonomika”, “Xrematistika” tushunchalari kiritilgan, ular bir-biriga qarshi qo‘yilgan, qiymat kategoriyasi, tovarlarning almashuv tamoyillari (ilk yo‘nalish) keltirilgan, ammo buning mezoni (mehnat miqdori, foydalilik) aniq berilmagan (1-rasm).




1-rasm. Iqtisodiyotning turli yo‘nalishlari va maktablari[11]

Merkantilizm – jamiyatning boyligi puldan, oltindan iborat bo‘lib, u savdoda, «asosan tashqi savdoda paydo bo‘ladi va ko‘payadi», deb tushuntiradi. Merkantilizm italyancha «mercante» so‘zidan olingan bo‘lib, «savdogar» ma’nosini anglatadi. Bu oqimning namoyondalari Uil Stafford, Tomas Men, Antuan Monkretyen, Jon Lou, Gaspar Skaruffi va boshqalar. Merkantilizm rivojida ikki davrni ajratish mumkin: 1. Ilk merkantilizm yoki monetarizm (XV–XVI asr o‘rtalari). 2. Rivojlangan merkantilizm, savdo balansi (yoki manufaktura sistemasi) (XVI–XVIII asr o‘rtalari).[12]

M. Blaus fikricha, merkantilistlar ilmiy dunyoqarashining yetakchi tamoyillari quyidagilar: 1) oltin va boshqa qimmatbaho metallarga boylikning asosi sifatida qaraladi; 2) mamlakatga oltin va kumushlarning oqib kelishini ta’minlash maqsadida savdoni tartibga solish; 3) arzon xomashyoni import qilish yo‘li bilan sanoatni qo‘llab-quvvatlash; 4) import qilinadigan tayyor sanoat tovarlariga proteksionistik (yuqori) tariflar; 5) eksportni, ayniqsa, tayyor mahsulot eksportini rag‘batlantirish; 6) ish haqining past darajasini ushlab turish uchun aholi sonining o‘sishi. Shubhasiz, milliy farovonlikning asosiy sharti sifatida aktiv savdo balansi hisoblangan va bu merkantilizm g‘oyasining yuragi edi.

Merkantilizm bilan birga siyosiy iqtisod tushunchasi ham kirib keldi. Bu tushuncha fransiyalik Antuan Monkreten Ser de Vattevil tomonidan kiritildi (1565–1621). U 1615-yilda “Siyosiy iqtisod traktati” kitobini yozdi. Bu kitobdagi asosiy g‘oya – “ko‘p sotish, kam sotib olish”. Olim o‘z g‘oyalari bo‘yicha faol merkantilist edi.

Klassik siyosiy iqtisod – boylik faqat qishloq xo‘jaligida emas, balki sanoat, transport, qurilish va boshqa sohalarda ham yaratilishini isbotlab berdi. Petti (1623–1686) boylikning manbayi yer va mehnat ekanligini e’tirof

11 Iqtisodiy ta ‘limotlar tarixi. D.S. Djumonov, Z.G. Allaberganov ,2017 , o quv qo‘llanma
12 “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” A.Razzoqov , SH.Tashmatov.

etgan. "Mehnat boylikning otasi, yer uning onasi", degan ibora unga tegishlidir. A. Smit "Odamlar boyligining tabiati va sabablari toʻgʻrisida tadqiqot" (1776-y.) asarida talab va taklif asosida shakllanadigan erkin narxlar asosida bozor oʻz-oʻzini tartibga solishi ("koʻrinmas qoʻl") gʻoyasini ilgari suradi. Insonni faollashtiradigan asosiy omil shaxsiy manfaatdir, deb koʻrsatadi. D. Rikardo foydaning yagona manbayi mehnat ekanligini koʻrsatadi.

Fiziokratlar – jamiyatning boyligi qishloq xoʻjaligida vujudga keladi, degan gʻoyani ilgari suradilar. Bu ta'limotning asoschisi Fransua Kene (1694–1774) hisoblanadi.

Sismondi (Jon Sharl Leonard Simon de Sismondi) kapitalistik iqtisodiy mexanizmni tanqid qilib, siyosiy iqtisod inson baxti yoʻlida ijtimoiy mexanizmni takomillashtirishga qaratilgan fan boʻlmogʻi lozim, deb koʻrsatadi.

Sotsial-utopistlar (A. Sen-Simon, Sharl Fure, Robert Ouen) kapitalizmni tanqid qilib, xususiy mulkchilikni yoʻq qilish, ishlab chiqarish, taqsimot va iste'molni qayta tashkil etish va adolatli tuzum (industrial jamiyat, garmonik jamiyat, kommunizm) oʻrnatish talabi bilan chiqadilar.

Marksizm jamiyat taraqqiyotiga tabiiy tarixiy jarayon deb qarab, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, ularning vujudga kelishi, rivojlanishi va boshqasi bilan almashinishi sabablari toʻgʻrisidagi ta'limotni hamda qoʻshimcha qiymat nazariyasini yaratadi.[13]

Marjinalizm vakillari (marjinal – me'yoriy, qoʻshilgan) tovar nafliligi, qoʻshilgan mehnat yoki resurs unumdorligining pasayib borishi nazariyalarini ishlab chiqqan. Keyingi tovar nafliligining kamayib borish qonuni bu oqimning asosiy prinsipi hisoblanadi. Shunga koʻra narx xarajatga bogʻliq boʻlmay, keyingi naflilik asosida belgilanadi. Karl Menger, Fridrix fon Vizer, Eigen fon Bem-Baverk, Uilyam Stenli Jevons marjinalizm asoschilari hisoblanadi.

Neoklassik maktab (asoschisi Alfred Marshall) – bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning aralashuvini cheklash gʻoyasini ilgari suradi. Bozor mexanizmining buzilishi monopoliyalar vujudga kelganda ham yuz berishini koʻrsatadi. Funksional bogʻlanish gʻoyasini asoslaydi, bozor bahosini belgilovchi omillar talab va taklifdan iborat, deb hisoblaydi. Bu maktab vakillaridan L. Valras umumiy iqtisodiy muvozanatlik modelini ishlab chiqishga, I. Shumpeter esa iqtisodiy tizimlar oʻzgarishining ichki kuchlarini koʻrsatib berishga harakat qilgan hamda iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch tadbirkorlik, degan xulosaga kelgan.

Keynschilik – rivojlangan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solib turish zarurligini asoslashga qaratiladi. Jon Meynard Keyns "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" (1936) nomli kitobida bunday tartibga solish yalpi talabga hamda shu orqali inflyatsiya va bandlikka ta'sir koʻrsatishini asoslaydi.

Neoliberalizm (F. Xayek, L. Erxard) – davlatning iqtisodiyotga aralashuvini eng kam darajaga keltirishga, e'tiborni xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratish lozimligini uqtiradi.

Monetarizm (M. Fridman) – iqtisodiyotni boshqarishni pul muomalasini tartibga solish orqali amalga oshirish mumkinligini asoslab beradi.[14]

Institutsionalizm tarafdorlari (T. Veblen, J. Gelbreyt) fikriga koʻra, xoʻjalik yurituvchilar oʻrtasidagi munosabatlar nafaqat iqtisodiy, balki noiqtisodiy omillar ta'sirida vujudga keladi. Shu sababli iqtisodiyotga muassasaviy oʻzgarishlar orqali ham ta'sir koʻrsatish mumkin. Iqtisodchilarning tadqiqotlaridagi asosiy bosh gʻoya jamiyat, insoniyat, ayrim shaxslarning boyligi masalasidir. Maqsad bir, lekin unga eltadigan yoʻllar nihoyatda xilma-xil ekanligini koʻramiz. Ilk kapitalistik munosabatlar vujudga kelgan davrgacha (XV asr) boʻlgan iqtisodiy gʻoyalardagi umumiylik shundan iboratki, barcha donishmandlar va ularning yozgan asarlarida mehnat va yer boylikning asosiy manbayi ekanligi turli yoʻllar bilan talqin etiladi, ularda ishlab chiqarish sohasi asosiy deb hisoblangan. Antik olimlarning iqtisodiy qarashlari, Oʻrta asrlardagi iqtisodiy qarashlar, fiziokratlar, merkantilizm, ilk klassik maktab, liberal maktab, Angliya klassik maktabi, marjinalizm, neoklassik yoʻnalish, 20–30-yillardagi neoklassik nazariyalar, neoklassikaning tanqidi, utopik-sotsialistik nazariyalar, markscha iqtisodiy ta'limot, tarixiy maktab, yangi tarixiy maktab, institutsionalizm, marksizmning sotsialistik demokratik yoʻnalishi, marksizmning bolshevik yoʻnalishi, keynschilik, Sovet davridagi iqtisodiy gʻoyalar, hozirgi davr institutsionalizmi, hozirgi davr keynschiligi, hozirgi davr neoklassik maktabi – barchasida ishlab chiqarish sohasi asosiy manba sifatida turli yoʻllar bilan talqin etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi zamonaviy dunyoda iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda zarur boʻlgan fanlarning biri sifatida iqtisodiy ta'limotlar tarixini oʻrganish bir tomondan ularda umuminsoniy va kasb madaniyatini shakllantirish maqsadida zarur boʻlsa, ikkinchi tomondan turli davrlardagi nazariy maktab, oqim va iqtisodiy yoʻnalish vakillarining nazariy meroslarini yaqin zamondagi tariximizga xos boʻlgan notoʻgʻri talqin qilishdan ehtiyot boʻlishda ijtimoiy va siyosiy bilimlar bilan birga tarixiy iqtisodiy bilimlarni egallash uchun ham zarurdir. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi quyidagi bir qator progressiv uslublarga asoslanadi: har qanday tadqiqotning asosi uslubi sifatidagi dialektika, induksiya va deduksiya, analiz va sintez; oʻtmishdagi iqtisodiy qarashlarni oʻrganishda

13 "Iqtisodiy ta 'limotlar tarixi" D.S.Djumanov, Z.G.Allaberganov, Toshkent"IQTISOD-MOLIYA"-2017
14 History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander-27 b

abstrakt va konkretlikni ajratish; nazariya va amaliyot oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni tahlil qilish, iqtisodiy taʼlimotlardagi umumiylik, yagona va alohidalikni aniqlash. Xulosa qilib aytganda, fan vaqt oʻtishi bilan progressiv yangi vositalar, yangi yondashuvlarni joriy etish va asosiy tushunchalarni yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi. Biroq baʼzi savollar takrorlanib turadi va hal qilinmagan dilemmalardan birini tashkil qiladi. Zamonaviy jamiyatda individual iqtisodiyot muammolariga alohida eʼtibor qaratiladi, xatti-harakatlar, bozor mexanizmlarining ishlashi va bozorning iqtisodiyotga nisbatan tutgan oʻrni, hukumat va boshqa omillar shular jumlasidandir. Xulosa oʻrnida aytish joizki, iqtisodiy taʼlimotlar tarixi shunchaki nazariyalar ketma-ketligi emas, balki davlat va jamiyat farovonligini taʼminlashning hayotiy tajribasidir. Bugungi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan bozor islohotlari zamirida ham dunyo tan olgan iqtisodiy maktablarning eng ilgʻor gʻoyalari yotadi. Klassik liberallashuv va davlatning tartibga soluvchi roli (neokeynschilik) oʻrtasidagi oltin muvozanatni topish milliy iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Oʻtmish falsafasini tushunish kelajakdagi iqtisodiy moʻjizalarni yaratish uchun poydevordir.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**


1. https://president.uz/oz/lists/view/4089
2. https://gov.uz/oz/cirns/news/view/83718
3. Lionel Robbins. An Essay on the Nature and Significance of Economic Science (Iqtisodiyot fanining tabiati va ahamiyati haqida risola), Bob II.
4. Paul A. Samuelson. Economics: An Introductory Analysis (Iqtisodiyot: kirish tahlili), 1-nashr, kirish boʻlimi.
5. https://www.researchgate.net/publication/384428851_HISTORY_OF_ECONOMIC_THOUGHTS
6. https://fasih.uz/posts/iqtisodiyot-u-nima-iqtisodiyot-turlari-iqtisodiy-korsatkichlar
7. Samuelson P. Iqtisod, 1–2-kitob, 1992-yil.
8. Islomov A., Egamov E.T. Iqtisodiy taʼlimotlar tarixi, TMI, 2003.
9. Paola Tubaro. History of Economic Thoughts.
10. Ginny Seung Choi, Virgil Henry Storr. Adam Smith on Markets and Their Potential to Benefit the Poorest in Society.
11. Galyautdinov R.R. Jan Batist Sey – fransuz “Adam Smiti” // Iqtisodiyot oʻqituvchisi sayti, 2014-yil.
12. Henderson, John P. The Life and Economics of David Ricardo. Boston: Kluwer Academic.
13. Abdella Mohammad Ahmed. History of Economic Thoughts.
14. Sh. Sh. Tashmatov, X. S. Asatullayev, Z. G. Allaberganov. Iqtisodiy taʼlimotlar tarixi. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.
15. A. Razzoqov, Sh. Tashmatov. Iqtisodiy taʼlimotlar tarixi.
16. D. S. Djumanov, Z. G. Allaberganov. Iqtisodiy taʼlimotlar tarixi. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017.
17. Harry Landreth, David C. Colander. History of Economic Thought, 27-bet.
18. Samuels, W. J., Biddle, J. E., & Davis, J. B. (Eds.). (2006). A Companion to the History of Economic Thought. Malden, MA: Blackwell.
19. https://cyberleninka.ru/article/n/merkantilizm-va-fiziokrat-maktablari-namoyondalarining-nazariy-qarashlari/viewer
20. Weintraub, E. R. (Ed.). (2002). The Future of the History of Economics. Durham, NC: Duke University Press.
21. Medema, S., & Samuels, W. J. (2003). The History of Economic Thought: A Reader. London: Routledge.
22. Pressman, S. (1999). Alfred Marshall (1842–1924). In Fifty Major Economists (pp. 64–69). Abingdon: Taylor & Francis Ltd. Retrieved December 1, 2007, from EBSCO Online Database Business Source Complete. http://search.ebscohost.com/login.aspx?direct=true&db=bth&AN=17020658&site=ehost-live

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

## 2-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to‘plami

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz